
Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Farg'ona shahrida amalga oshirilayotgan yangi loyihalar bilan tanishdi

Viloyat hokimi Xayrullo Bozorov Farg'ona shahrida ijtimoiy-iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan ishlar, kichik sanoat zonalaridagi investitsiya loyihalarining ijrosi, shuningdek, sektorlar faoliyati samaradorligini o'rganish doirasida Kimyogarlar MFY hududidagi "Sanoatchilar" Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasida bo'ldi.

"Sanoatchilar" Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasida eksportbop va import o'rnini bosuvchi sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha umumiy qiymati 38,5 milliard so'm bo'lgan jami 11 ta loyiha joylashtirilgan.

2022-09-21 19:23:16